


## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YaHM) hajmi 11038,6 mld. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan o'sish sur'ati 104,9 foizga teng bo'ldi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida YaHM deflyator indeksi 115,1 foizni tashkil qildi.

**Yalpi hududiy mahsulot (YaHM)**—milliy hisoblar asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududda joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig 'indisi orqali hisoblanadi.

### YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari, foizda 2021- yil yanvar-iyun oylarida



Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 100,4 foiz (umumiyl ulushning 40,3 foizi), sanoat – 109,5 foiz (umumiyl ulushning 12,9 foizi) ni tashkil qildi.

**Yanvar-iyun oylarida viloyat yalpi hududiy  
mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi**

	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>2020- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2020- yil yanvar-iyun</i>	<i>2021- yil yanvar-iyun</i>	

<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>9146,6</b>	<b>11038,6</b>	<b>104,9</b>
--	---------------	----------------	--------------

*shu jumladan:*

tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	8896,0	10646,5	104,9
---	--------	---------	-------

mahsulotlarga sof soliqlar	250,6	392,1	104,8
----------------------------	-------	-------	-------

<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>	<b>8896,0</b>	<b>10646,5</b>	<b>104,9</b>
---	---------------	----------------	--------------

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	3575,2	4287,1	100,4
---	--------	--------	-------

<b>Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)</b>	<b>1767,8</b>	<b>2094,4</b>	<b>108,0</b>
---	---------------	---------------	--------------

Sanoat	1168,1	1370,3	109,5
--------	--------	--------	-------

qurilish	599,7	724,1	105,1
----------	-------	-------	-------

<b>Xizmatlar</b>	<b>3553,0</b>	<b>4265,0</b>	<b>107,8</b>
------------------	---------------	---------------	--------------

savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	523,9	639,7	107,7
---	-------	-------	-------

tashish va saqlash, axborot va aloqa	516,4	669,3	116,6
---	-------	-------	-------

boshqa xizmat tarmoqlari	2512,7	2956,0	106,0
--------------------------	--------	--------	-------


2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning yalpi hududiy mahsulotining o‘sish sur’atiga asosiy ta’siri 109,5 foiz – sanoat, 105,1 foiz qurilish tarmoqlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. YaHM ishlab chiqarish umumiylaj hajmining 72,2 foizi kichik tadbirdorlik (biznes) hissasiga to‘g‘ri keldi, bu ko‘rsatkich 2020- yil yanvar-iyun oylarida 72,3 foizni tashkil qilgan.

## Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, % da


(jamiga nisbatan foizda)

2021- yilning yanvar-iyun oylarida YaHM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasining ulushi 40,3 foizni tashkil qildi va 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,1 punktga (40,2 foiz) o'sdi, sanoat (qurilishni qo'shgan holda)ni ulushi 19,7 foizni tashkil qilib, 2020 - yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,1 punktga (19,7 foiz) kamdir. Xizmatlar sohasi 40,0 foizni tashkil qildi va o'tgan yilga nisbatan o'zgarishsiz qoldi.

2020- yil yanvar-iyun



2021-yil yanvar-iyun



■ Mahsulotlarga sof soliqlar

■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


■ Xizmatlar

■ Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati


■ Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)

**Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes ulushi**  
*(2021- yil yanvar-iyun oylari, jamiga nisbatan ulushi)*

**2020- yil**




**2021- yil**




O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YaIM ni shakllantirishda Xorazm viloyatining qo‘sghan hissasi 3,5 % ni tashkil etib, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 punktga (3,4 foiz) ko‘pdir.

**Yalpi ichki mahsulotda Xorazm viloyatining ulushi, foizda**




Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 5813,5 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 103,4 foiz o‘sishga erishildi.

**Yanvar-iyun oylarida viloyat aholi jon boshiga hisoblangan  
YaHM hajmi va o'sish sur'ati**




**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi  
(jamiga nisbatan foizda)**

**2020-yil yanvar-iyun**



**2021-yil yanvar-iyun**



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

2021- yil yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulot hajmida xizmatlar ulushi 40,0 foiz (2020- yil yanvar-iyun oylarida 40,0 foiz) ni tashkil qildi.

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 6,0 foizni (2020- yil yanvar-iyun oylarida 5,9 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari – 6,3 foizni (2020- yil yanvar-iyun oylarida 5,8 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar–27,7 foizni (2020-yil yanvar-iyun oylarida 28,3 foiz) tashkil etdi.

**O‘zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati bilan solishtirma  
makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari**  
(2021- yil yanvar-iyun)

	<i>O‘zbekiston Respublikasi</i>		<i>Xorazm viloyati</i>		<i>Respublikadagi ulushi, % da</i>	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘sish sur’ati, % da</i>	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘sish sur’ati, % da</i>	<i>yanvar- iyun 2020 - y.</i>	<i>yanvar- iyun 2021- y.</i>
Yalpi ichki mahsulot (hududiy) mahsulot	318472,0	106,2	11038,6	104,9	3,4	3,5
Sanoat	200060,6	108,5	5444,7	109,5	2,6	2,7
Iste’mol tovarlari	64280,4	107,7	3360,1	111,1	5,2	5,2
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	116618,2	101,8	7316,3	100,4	6,3	6,3
Investitsiyalar	103055,7	105,9	3712,7	141,0	2,7	3,6
Qurilish ishlari	48609,9	100,1	1641,9	105,1	3,2	3,4
Chakana tovar ayylanmasi	104381,6	109,0	4310,1	104,1	4,3	4,1
Xizmatlar, jami	127694,7	118,3	3897,6	120,1	3,0	3,1
Eksport (mln. AQSh doll.)	7055,5	112,3	105,2	121,9	1,4	1,5
Import (mln. AQSh doll.)	10957,4	114,3	189,3	155,5	1,3	1,7

2021- yilning yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti 11038,6 mlrd. so‘mni, respublika yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,5 foizni tashkil qilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 104,9 foizni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5 444,7 mlrd. so‘mni (respublikada sanoat mahsulotlarining 2,7 foizini) tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 109,5 foizni tashkil etdi. 2021-yil yanvar-iyun oylarida viloyatda 3360,1 mlrd. so‘mlik xalq iste’mol tovarlari (respublikada xalq iste’mol mahsulotlarining 5,2 foizi) ishlab chiqarilib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 111,1 foizni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 7316,3 mlrd. so‘mni (respublikada qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarining ulushi 6,3 foiz) tashkil etib, 2020- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 100,4 foizga etdi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 3712,7 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, o‘sish sur’ati 2020- yilning shu davriga nisbatan 141,0 foizni (respublikadagi ulushi 3,6 foiz) tashkil etdi.

2021-yil yanvar-iyun oylarida 1641,9 mlrd. so‘mlik (respublikadagi ulushi 3,3 foiz) qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 105,1 foizni tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 4310,1 mlrd. so‘mni (respublikadagi ulushi 4,1 foiz), o‘sish sur’ati 2020- yilning shu davriga nisbatan 104,1 foizni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 3897,6 mlrd. so‘mni, (respublikadagi ulushi 3,1 foizni) tashkil qildi va 2020-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish 120,1 foizni tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasi 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 294,5 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,6 foizni), o‘sish sur’ati 141,6 foizni, jumladan: eksport – 105,2 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,5 foizni), o‘sish sur’ati 121,9 foizni, import – 189,3 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,7 foizni), o‘sish sur’ati 155,5 foizni tashkil etdi.